

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**

**SAMARQAND VILOYATI XALQ TA'LIMI XODIMLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH HUDUDiy  
MARKAZI**

**AMALIY FANLAR VA MAKTABDAN TASHQARI TA'LIM  
METODIKASI KAFEDRASI**

**DONIEV B.B.**

**MAKTABLARDA KASBGA YO'NALTIRISH TA'LIMI  
ISLOHATLARNING ZARURLIGI  
(Uslubiy ko'rsatma)**

**Samarqand - 2021**

*Ushbu uslubiy ko'rsatma hozirgi zamon sharoitida texnologiya ta'limini tashkil etish va ushbu sohani yo'lga qo'yishda mehnat ta'limi o'qituvchisining o'rnini belgilashning dolzarb muammolariga bag'ishlangan. Qo'llanma texnologiya va kasb-hunar ta'limi o'qituvchilariga, ustalarga, xalq ta'limi tashkilotchilariga, rahbarlariga shu soha bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan mustaqil tadqiqotchilarga mo'ljallangan.*

*Shunindek, ushbu qo'llanmadan texnologiya ta'limi o'qituvchilarining kasbiy mahoratlarining takomillashtirish jarayonida qatnashadigan XTXQTMOHMning professor-o'qituvchilari, tuman (shahar) metodik xizmat ko'rsatishni ta'minlash va tashkil etish bo'limlari xodimlari, metodistlari, pedagog kadrlarning attestasiyasi muammolari bilan sho'g'ullanuvchi mas'ullar va oliy o'quv yurtlarining mehnat va kasb ta'limi yo'nalishlarining talabalri va professor o'qituvchilari ham foydalanishlari mumkin.*

**Tuzuvchi muallif:**

**Doniyev B.B.**

Samarqand VXTXQTMOXM Amaliy fanlar va maktabdan tashqari ta'lim metodikasi kafedراسi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.

**A.Abdumannotov** Jismoniy tarbiy va sport bo'yicha mutaxassislarining qayta tayorlash va malakasini oshirish inistituti Samarqand filali "Pedagogika va psixologiya kafedراسi mudiri dotsent, pedagogika fanlari nomzodi.

**U.Utanov** Samarqand VXTXQTMOXM Amaliy fanlar va maktabdan tashqari ta'lim metodikasi kafedراسi mudiri dotsent, pedagogika fanlari nomzodi.

**Z.Pardaev** Samarqand VXTXQTMOXM Amaliy fanlar va maktabdan tashqari ta'lim metodikasi kafedراسi mudiri dotsent, pedagogika fanlari nomzodi.

Ushbu "Maktablarda kasbga yo'naltirish ta'limi islohatlarning zarurligi" nomli uslubiy ko'rsatma kafedraning 2021yil 31-avgustdagi 4-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Milliy dasturi» talablari asosida ta'lim-tarbiya tizimining isloh qilinishi, uzluksiz ta'lim jarayonida yetakchi ijrochi bo'lgan o'qituvchi faoliyatini ham tubdan o'zgartirishga olib kelmoqda. Bu esa, ijtimoiy jarayonning ajralmas qismi bo'lgan ta'lim-tarbiya tizimiga, uning maqsadi va mazmuniga hamda o'qituvchining pedagogik faoliyati va mahoratiga yangicha talablar qo'yimoqda.

Darhaqiqat, uzluksiz ta'lim tizimida yuz berayotgan yangilanishlar, o'quv-tarbiya jarayonining an'anaviy va noan'anaviy shakllari, mazmuni, vositalari, usullari va shart-sharoitlarini amalga oshirish o'qituvchidan yuksak darajadagi kasbiy bilim va mahoratga ega bo'lishni talab etadi. Ma'lumki, o'qituvchilik kasbi boshqa kasblardan farqli ravishda ko'p tomonlama mas'uliyatni o'zida mujassamlantiradi: birinchidan, u shaxsni shakllantirishi, ya'ni inson ruhiyatini chuqur bilishi; ikkinchidan, ta'lim-tarbiyaning barcha vosita, uslub va yo'llaridan samarali foydalanib, o'quv-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etishi, ya'ni o'qitish samaradorligiga erishmog'i; uchinchidan, o'zining insoniy fazilatlarini jamiyat talablariga mos ravishda shakllantirib borishi lozim.

Texnologiya ta'limi amalga oshiriladigan o'rta umumta'lim maktablari va shu maqsadlarda xizmat qiladigan turli xildagi ta'limiy, tarbiyaviy muassasalar faoliyati mazmuni bilan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda jamoatchilik, xususiy, shaxsiy, qo'shma, davlat korxonalarini bilan bu ta'limni amalga oshirishga bog'liq o'zaro aloqa mexanizmining tuzilishi ham yoritilgan.

Ushbu uslubiy ko'rsatmada yuqorida qayd etilgan texnologiya ta'limi mazmuni va texnologiya ta'limi o'qituvchisi pedagogik faoliyatini o'rganishga qaratilgan ilmiy-pedagogik muammolarning mazmun va mohiyatini pedagogik nuqtai nazardan talqin etishga harakat qilindi.

# I. TEXNOLOGIYA VA KASBGA YO'NALTIRISH TA'LIMI VA UNING DOLZARBLIGI

## REJA

1. Yoshlarning texnologiya va kasbga yo'naltirish ta'limi va uning jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati.

2. Ta'lim to'g'risidagi qonun va unda yoshlarning mehnat va kasbga yo'naltirish ta'limi va tarbiyasining o'rni.

3. Maktablarda kasbga yo'naltirish ta'limini rivojlanishidagi mavjud ziddiyatlar va murakkabliklar.

**Tayanch iboralar:** mehnat, kasbga yo'naltirish, jamoatchilik, xususiy, shaxsiy, qo'shma, davlat korxonalarini bilan ta'limni tashkil etish shakllari.

**Dars o'tish vositalari:** fan dasturi, o'quv qo'llanma, mashg'ulot ishlanmasi, jadvallar, yo'l-yo'riq xaritalari, topshiriq kortochkalari, tarqatma materiallar, texnik vositalardan: proyektor, o'quv televideniyesi, videomagnitafon, kompyuter vediofilmlar, multimedialar va boshqa ko'rgazmali vositalar.

**Dars o'tish usullari:** o'qitishning og'zaki, ko'rgazmali va amaliy, izohli-ko'rgazmali, muammoli izlanishli, faol o'qitish, an'anaviy va noan'anaviy o'qitishning zamonaviy metodlaridan aqliy hujum, bahs - munozara, vidiomateriallardan foydalanish, muzyorar, improvizatsiya, pinbord hamda davra suhbatlari va h.k.

Mustaqil O'zbekistonning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy tuzilishida ro'y berayotgan ko'p qirrali o'zgarishlar, fan-texnika taraqqiyoti, jamiyat tuzilishining jahon demokratik andozasiga intilishi va boshqa ko'plab omillar uzluksiz ta'lim tizimini, umumiy ta'limni, jumladan, maktab mehnat ta'limini hozirgi zamon talablari asosida yangilashni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida belgilab berilganidek, «Umumiy ta'lim uzluksiz davlat ta'limi tizimida asosiy bo'g'in bo'lib, ta'lim oluvchilar ilmiy bilim, mehnat va boshlang'ich kasbkor ko'nikmalari, ishbilarmonlik asoslarini egallashlarini, shuningdek, o'z ijodiy qobiliyatlari va ma'naviy fazilatlarini rivojlantirishni ta'minlaydi».

Yosh avlodni zamonaviy texnika va ishlab chiqarish texnologiyasi, xalq xo'jaligining turli sohalari bo'yicha yangi bilimlar, mehnat malakalari va kasb-kor ko'nikmalari, xo'jalikni yuritishning yangicha usullari hamda ishbilarmonlik asoslari bilan qurollantirishni mehnat ta'limi o'zining ustivor yo'nalishlari mazkur qonun doirasida amalga oshiradi.

Hozirgi zamon sharoitida texnologiya ta'limining ilmiy-nazariy va amaliy-uslubiy, moddiy-texnikaviy, ijtimoiy-pedagogik muammolarini hal etish va amalga oshirishda qator ziddiyatlar yuzaga kelgan.

Jumladan:

- ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy tuzumda ro'y berayotgan tub o'zgarishlar bilan texnologiya ta'limining ilmiy-uslubiy, pedagogik, moddiy-texnikaviy jihatdan zamonaviy ta'minlanishi o'rtasida;

- ilmiy-texnikaviy jihatdan o'zgarishlar, zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyasi, xo'jalik yuritishning zamonaviy mazmuni bilan texnologiya ta'limini amalga oshirishning an'anaviy shakllari, yo'llari, mazmuni, vositalari, uslublari o'rtasida;

- texnologiya ta'limini amalga oshirishning asosiy qismi bo'lgan o'rta maktab bo'g'ini bilan uzluksiz ta'limning boshqa bo'g'inlari maktabgacha ta'lim-tarbiyaning, o'rta maxsus va oliy ta'lim va undan keyingi bosqichlarning uzviyligi o'rtasida;

- texnologiya ta'limining maqsadi va jamiyat oldida tutgan vazifalari metodologik asoslari bilan tarixiy rivojlanishi, milliy madaniyati, ta'limga qo'yilgan jahon andozalari o'rtasida;

- texnologiya ta'limining o'ziga xos xususiyatlari bilan o'quvchilarning nazariy bilimlarni o'zlashtirish va amalda qo'llash mexanizmining didaktik asoslari ishlab chiqilmaganligi o'rtasida;

- texnologiya ta'limidan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimining mazmuni va sifati bilan maktab mehnat ta'limi o'quv kursining mazmuni, shakllari va o'qitish metodlari o'rtasida;

- texnologiya ta'limi amalga oshiriladigan o'rta umumta'lim maktablari va shu maqsadlarda xizmat qiladigan turli xildagi ta'limiy, tarbiyaviy muassasalar faoliyati mazmuni bilan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda jamoatchilik, xususiy, shaxsiy, qo'shma, davlat korxonalarini bilan bu ta'limni amalga oshirishga bog'liq o'zaro aloqa mexanizmining tuzilishi o'rtasida va yana boshqalar.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan ziddiyatlar bartaraf etilib borilgandagina, shu bilan mehnat ta'limining o'ziga xosligi tiklangandagina uning hozirgi zamon jamiyati rivojlanishida, yoshlarni mehnatga, ma'lum kasb-hunarga, qolaversa, hayotga tayyorlash masalasi dolzarb muammolardan biri deb hisoblash mumkin.

### **Topshiriqlar va vazifalar:**

1. Hozirgi davrda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlar mazmunini ta'riflang.

2. Jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlar va ularning mohiyatini yoritib.

3. Yoshlarning texnologiya va kasbga yo'naltirish ta'limi hamda tarbiyasida ro'y berayotgan o'zgarishlar va ularning ishlab chiqarish bilan bog'liqligini aniqlang.

4. Kasbga yo'naltirish ta'limi mazmuni, tuzilishi, samarali shakllarini tanlang.

5. O'quvchi yoshlarning texnologiya va kasbga yo'naltirish ta'limini rivojlanishidagi mavjud ziddiyatlar va murakkabliklar hamda ularning yechilishlarini toping.

6. O'quvchilarning umummehnat va maxsus ko'nikma va malakalariga 10 ta misol keltiring va ta'riflang.

**Adabiyotlar:** 1,2,3,4,5,11,13,15,16,17,18,19,20

## II. TEXNOLOGIYA TA'LIMINI O'QITISHNING O'ZIGA XOS MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

### REJA:

1. Texnologiya ta'limini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Texnologiya ta'limining o'quv metodik ta'limotidagi uzilishlar va ularning sabablari.
3. Texnologiya ta'limining moddiy-texnikaviy ta'minotidagi yetimoshmovchiliklar va ularning manbalari
4. Texnologiya ta'limining boshqa fanlar bilan bog'liqligi, o'xshashligi va farqlari.
5. Texnologiya ta'limini rivojlantirishda e'tibor beriladigan asosiy tomoyillar.

**Tayanch iboralar:** moddiy-texnikaviy ta'minot, texnologiya ta'limini boshqa fanlar bilan aloqasi (pedagogika, psixologiya, fizika, geometriya, metodika va h.k.).

**Dars o'tish vositalari:** fan dasturi, o'quv qo'llanma, mashg'ulot ishlanmasi, jadvallar, yo'l-yo'riq xaritalari, topshiriq kortochkalari, tarqatma materiallar, texnik vositalardan: proyektor, o'quv televideniya, videomagnitafon, kompyuter vediofilmlar, multimedialar va boshqa ko'rgazmali vositalar.

**Dars o'tish usullari:** o'qitishning og'zaki, ko'rgazmali va amaliy, izohli-ko'rgazmali, muammoli izlanishli, faol o'qitish, an'anaviy va noan'anaviy o'qitishning zamonaviy metodlaridan aqliy hujum, bahs - munozara, vidiomateriallardan foydalanish, muzyorar, improvizasiya, pinbord hamda davra suhbatlari va h.k.

Texnologiya ta'limini o'qitishni tubdan yangilashga ehtiyoj, uning tarixi, nazariyasi va amaliyotining ahvoli davr taqozosi bilan inqiroz darajasiga kelib qolganligi bosh sabablardan hisoblanadi.

Texnologiya ta'limi o'qitilishining inqiroziga sabab bo'lgan qator juz'iy va joriy omillarning ba'zilarini keltirib o'tish ta'bir joizdir:

1. Texnologiya ta'limining metodologik asosini tashkil etuvchi mehnat tayyorgarligi, kasb-hunar tayyorgarligi, mehnat ta'limi uslubiyati to'g'risidagi g'oyalar va nazariyalarning yaratilishida O'zbekistonning etnografik, tarixiy, milliy va mahalliy sharoitlari, xususiyatlarining aks ettirilmaganligi;

2. Texnologiya ta'limining uzluksiz ta'lim va tarbiya tizimidagi o'rnini, mohiyatini belgilaydigan g'oyalarning, nazariyalarning yaratilmaganligi;

3. Uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimida texnologiya ta'limining o'quv uslubiy asosi (ta'limning barcha bo'g'inlarida o'qituvchilar va o'quvchilar uchun darsliklar, o'quv qo'llanmalari, dasturlar, uslubiy qo'llanmalar va b.q.) to'liq ravishda yaratilmaganligi va amaliyotga joriy etilmaganligi;

4. Texnologiya ta'limini boshqa fanlarga nisbatan amaliy va ishlab chiqarish mazmunidagining e'tiborga olinmayotganligi va bu holning qo'shimcha moddiy-texnikaviy ashyolar talab qilishi, bunday jihozlarning (turli stanoklar, materiallar, qurilmalar, asboblari, qo'shimcha sexlar, tajriba-yer uchastkalari, maxsus himoya va ish kiyim-boshlari, binolar, 3 fazali elektr energiya manbalari, traktorlar, mashinalar va b.q.) ta'minotining juda og'ir ahvolga tushib qolganligi.

5. Texnologiya ta'limida sinf-dars o'quv tizimi, sinfdan va maktabdan tashqarida tashkil etiladigan ta'limiy-tarbiyaviy tadbirlarning o'zaro uzviy bog'liqligining saqlanishiga rioya qilinmasligi;

6. Texnologiya ta'limi uzluksiz amalga oshiriladigan barcha o'quv muassasalarning (bog'chalar, boshlang'ich va tayanch maktabi, maxsus kasb-hunar maktablari, liseylar, kollejlari, oliy o'quv yurtlari va malaka oshirish institutlari va kurslarida v.b.) o'zaro uyg'unlashgan faoliyatini tashkil etishda bosh rolni o'ynaydigan, asosiy ijrochi o'qituvchi mutaxassislarni tayyorlash jarayonining mazmunini, hajmini, yo'nalishlarini qayta ko'rib chiqib, uni tubdan yangilash zarurligi.

7. Texnologiya ta'limining o'quv-dars tizimining, uning sinfdan va maktabdan tashqari ta'limiy va tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishda maktab, oila, jamoatchilik, otalik korxonalar (davlat tasarrufidagi va xususiy yo'nalishdagi), maktabdan tashqari tarbiyaviy muassasalar, kasb-hunar bilim yurtlari, oliy bilim yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari o'rtasidagi o'zaro aloqaning uzviy va doimiy ravishda amalga oshirilmasligi;

Yosh avlodni kelajak hayotga, mehnat faoliyati jarayoniga va ma'lum kasb-hunarlarga tayyorlashda, umumta'lim maktablarining moddiy texnikaviy ta'minotini yaxshilashda, o'quvchi-bitiruvchilarning jinoyatchilik yo'llariga kirib ketishlarining oldini olishda, ularni kelgusida oila boshqarish, boqish va biror kasb-hunarni egallash orqali jamiyat boyligiga boylik qo'shadigan, ishlab chiqarish ishida halol qatnashadigan mehnatkash kishilar bo'lib yetishishlarida mehnat ta'limining imkoniyatlari beqiyosdir.

Texnologiya ta'limining o'ziga xos bo'lgan ta'lim, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi imkoniyatlarini, vazifalarini amalga oshirishda turli xil ijtimoiy, ilmiy, pedagogik-nazariy, amaliy, uslubiy va moddiy-texnikaviy sharoitlar yaratilmog'i lozim. Bunday shart-sharoitlar quyidagilardir:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida mehnat ta'limi qo'shimcha fan sifatida emas, asosiy fanlar darajasida o'qitilishini ta'minlash;

2. Texnologiya ta'limining umumta'lim maktab kursi tuzilishidan kelib chiqib, nazariy bilimlarni o'zlashtirishni, hozirgi zamondagi mehnat mazmuni, amaliy ko'nikma va malakalarni, ishlab chiqarish unumli mehnati bilan bog'liq holda olib borish;

3. Texnologiya ta'limini o'qitishda:

- ishlab chiqarishning texnikaviy-texnologik, xalq xo'jaligi asoslarini;

- ijodni rivojlantiruvchi, politexnik, kasbiy yo'nalishdagi topshiriqlarni berib borishi;

- qishloq xo'jalik asoslarini, texnikasini, texnologiyasini va kishilarini o'rganishini;

- mashg'ulotlarda ko'rgazmalilikni, o'qitishning og'zaki bayon qilish, amaliy va mustaqil ishlash, ilmiy-tadqiqot usullarini birgalikda bog'lab olib borishni ta'minlash.

4. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning texnologiya ta'limini amalga oshirishda uning nazariyasi va amaliyotida tarixiy, milliy mahalliy, etnografik, jo'g'rofiy, tabiiy, iqlimiy va sharqona xususiyatlarini hisobga olish va ushbu ta'limning kelgusida rivojlanishida bu omillarga ustuvor qoidalar sifatida rioya qilish;

5. Texnologiya ta'limining boshqa fanlardan farq qiladigan xususiyatlarini, jumladan, uning ko'proq amaliy va ishlab chiqarish yo'nalishida ekanligini nazarda tutib:

- o'qitishning sinf-dars tizimini takomillashtirish;

- sinfdan va maktabdan tashqari ta'limiy-tarbiyaviy tadbirlarni hozirgi zamon talablari ruhida mazmunan va shaklan qayta ishlab chiqish bilan amaliyotga qo'llash;

- uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida texnologiya ta'limining uzviyligini ta'minlash;

- texnologiya ta'limining amalga oshirilishi jarayonining yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlanishining takomillashtirilishini tubdan qayta ko'rib chiqish;

- davlat, xususiy, qo'shma va shaxsiy korxonalarda o'quvchilarga mehnat ta'limi asoslarining o'rgatish jarayonini ma'lum bir tizimga solib, boshqarilishini, nazorat va rahbarlik qilinishini ta'minlash.

6. Texnologiya ta'limining o'quv-uslubiy ta'minoti, pedagogik-nazariy asoslari, dasturlar, tavsiyanomalar, o'quv qo'llanmalari, darsliklar, ularning ta'riflarini va ilg'or pedagogik tajribalarini davriy

matbuotda, radio va televideniye yada yoritib borilishi, ko'rsatmali va tarqatma materiallar va boshqalar bilan ta'minlanishini yaxshilash;

7. Texnologiya ta'limining moddiy-texnikaviy ta'minoti – turli xil stanoklar, asboblar, moslamalar, qurilmalar, jihozlar, binolar, elektr energiyasi, materiallar, yonilg'ilar, yer uchastkalari, traktor va mashinalar va boshqalar bilan ta'minlanishini yaxshilash;

8. Xalq hunarmandchiligining mehnat talimining mazmunidagi an'anaviy yo'nalishlar safiga yangi yo'nalish sifatida kiritishning nazariy-ilmiy, uslubiy, pedagogik, amaliy-tashkiliy, moddiy-texnikaviy va kadrlar bilan ta'minlash masalalari tizimini ishlab chiqib amalda qo'llash;

9. Hozirgi paytda, ko'pgina hollarda o'rta umumta'lim maktablaridagi mavjud texnologiya ta'limi darslarining umumiy miqdorini o'tgan yillardagiga nisbatan qisqartirib yubormaslik. Chunki, sinflardagi mehnat ta'limi darslarini qisqartirib boshqa fanlar hisobiga berib yuborish o'quvchilarning ko'pgina fanlardan (masalan, tabiatshunoslik, fizika, jo'g'rofiya, botanika, biologiya, kimyo, matematika, tasviriy san'at va h.k.) egallagan nazariy bilimlarini, qonuniyatlarini hayotga, amaliyotga faqat mehnat ta'limi mashg'ulotlarida yaqqolroq qo'llashlari, sinab ko'rishlari mumkinligini nazarda tutmoq lozim.

#### **Topshirqlar va vazifalar:**

1. Texnologiya ta'limining o'quv-metodik ta'minoti turlari, tuzilishi, ta'riflari.
2. Texnologiya ta'limida darsliklar to'liq ishlab chiqilmayotganligini sabablari.
3. Texnologiya ta'limi moddiy-texnik ta'minoti turlari, qismlari.
4. Texnologiya ta'limini moddiy-texnik ta'minoti muammolari va yechimlari.
5. Texnologiya ta'limida kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish.
6. Texnologiya ta'limida asbob-uskinalar, jihozlar, materiallar ta'minoti muammolari.

**Adabiyotlar:** 1,2,3,4,5,11,13,15,16,17,18,19,20

### III. HOZIRGI ZAMON SHAROITIDA TEXNOLOGIYA TA'LIMINING MAQSAD VA VAZIFALARI

#### REJA:

1. Hozirgi davrda texnologiya ta'limi uzliksiz ta'limning tegishli bosqichida o'qitilishi hajmi.
2. Maktab ta'limi bosqichlari, yo'nalishlari, tuzilishi.
3. Boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limi maqsadi.
4. 5-7 sinflarda texnologiya ta'limini maqsadi, tuzilishi.
5. 8-9 sinflarda texnologiya ta'limi maqsadi, vazifalari.
6. Texnologiya ta'limini milliylashtirish maqsadi va vazifalari.

**Tayanch iboralar:** ta'lim to'g'risidagi qonun DTS, reja, dastur, texnologik xarita, loyihalashtirish, darsning tuzilishi.

**Dars o'tish vositalari:** o'quv dasturi, o'quv qo'llanma, mashg'ulot ishlanmasi, jadvallar, yo'l-yo'riq xaritalari, topshiriq kortochkalari, tarqatma materiallar, texnik vositalardan: proyektor, o'quv televideniyasi, videomagnitafon, kompyuter vediofilmlar, multimedialar va boshqa ko'rgazmali vositalar.

**Dars o'tish usullari:** o'qitishning og'zaki, ko'rgazmali va amaliy, izohli-ko'rgazmali, muammoli izlanishli, faol o'qitish, an'anaviy va noan'anaviy o'qitishning zamonaviy metodlaridan aqliy hujum, bahs - munozara, vidiomateriallardan foydalanish, muzyorar, improvizasiya, pinbord hamda davra suhbat va h.k.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning mehnat ta'limi shu nomdagi predmet va shu yo'nalishdagi ta'limiy-tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirish bilan bajariladi.

I, II, III bosqich maktablaridagi texnologiya ta'limini o'qitishning maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

I bosqich boshlang'ich maktab sharoitida o'quvchilarda mehnat dunyosi, o'simliklar o'stirish, materiallar va yerga oddiy ishlov berish, oddiy asboblardan va mehnat malakalari to'g'risida sodda tasavvurlar hosil qilish. Bolalar maktabdagi mehnat ta'limini oiladagi mehnat jarayoni bilan uzviy bog'lab olib boradilar.

II bosqich asosiy maktabda – o'quvchilarda umummehnat ko'nikma va malakalarini shakllantirish, o'z-o'zini kasbiy jihatdan aniqlashlari, tanishlarini, mehnat madaniyatini shakllantirishni va rivojlantirishni, xalq xo'jaligi asoslarini o'rgatishni, texnikasi va texnologiyasi bilan tanishtirishni, mehnat faoliyatining turli sohalarida ishtirok etishlarini ta'minlash.

III bosqich tayanch maktabida mehnat ta'limi kursi o'quvchilarini turli xil qo'l asboblarini, jihozlarini, moslamalarini o'rgatishni, mexanizasiyalashtirilgan vositalar bilan ishlashni, mehnat xavfsizligini, sanitariya-gigiyena qoidalari, mehnat qonunchiligi asoslarini o'rganishini, yo'l-yo'riqlar o'tkazishni va boshqalarni o'rgatishni ta'minlaydi.

Yuqori sinflardagi o'tiladigan texnologiya ta'limi kursi o'quvchilarga xalq xo'jaligining turli sohalari bo'yicha tashkil qilinadigan amaliy ishlab chiqarish kurslarini o'qitish jarayonida turli xil kasbiy bilimlar berish, amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilishni maqsad qilib ko'yadi. Ushbu kurslarni o'tgan o'quvchilar kasbiy tegishli hujjatlarni olib, bevosita unumli mehnat jarayonida qatnashish imkoniga va huquqiga ega bo'ladilar.

Xalq hunarmandchiligining o'rta maktabda mehnat ta'limi tizimiga kiritilishi o'quvchilarga milliy qadriyatlar, an'analar, tarixiy yodgorliklar, xalq ustalarining ko'p qirrali boy merosini o'rganish, o'zlashtirish va ularni amaliy faoliyatini qo'llab-quvvatlash va davom ettirish vazifasini ko'ndalang qo'yadi va hal etadi.

Hunarmandchilikda shogird-ustoz tizimi mehnat ta'limining amaliy va ishlab chiqarish mazmunidagi an'anaviy sinf-dars mashg'ulotlariga nisbatan tarbiyaviy mahsuldorligi, samaraliligi, bo'lg'usi hunarmand-mehnatkashning shaxsiy xislatlarining shakllanishida ular oilalarining moddiy ta'minlanishida hamda tarixiy qadriyatlarimizning yanada boyishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu tizimni oliy o'quv yurtlaridagi musiqa ta'limida yakka tartibdagi mashg'ulotlar o'tkazish bilan taqqoslash mumkin.

Texnologiya ta'limidagi informasion-hisoblash texnikasi, avtomatikaning qo'llanilishi, mexanizasiyalashtirilgan va elektrlashtirilgan qurilmalar va vositalarning o'rganilishi o'quvchilarning hozirgi zamon ishlab chiqarishidagi avtomatik va dasturli boshqarish tizimlari, robototexnika va ishlab chiqarish texnikasini va texnologiyasini ta'limning jahon andozasi, davr talablari darajasiga mos holda o'rganishini ta'minlaydi.

Keyingi vaqtlarda kam e'tibor berilayotgan, hatto yo'qolib borayotgan turli xildagi ta'limiy-tarbiyaviy tadbirlar: o'quvchilar ishlab chiqarish jamoalari, maktablararo o'quv-ishlab chiqarish ustaxonalari, kombinatlari, o'quvchilar mehnat jamoalari, mavsumiy ishlarda va otaliq korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatida qatnashishlari, qolaversa, otaliq korxonalarining, xususiy va davlat tashkilotlarining maktab bilan bevosita va bilvosita munosabatlari, yordam berish an'analari va

boshqalar mazmunan va shaklan qayta ko'rab chiqilib, qayta ishlanib zamon ruhiga moslashtirilib qayta tiklanishi mehnat ta'limining maqsad va vazifalarini ijobiy amalga oshirishdagi asosiy shart-sharoitlardan hisoblanadi. Texnologiya ta'limini amalga oshirishda maktablar, maktabdan tashqari tarbiyaviy muassasalarining bozor iqtisodiyotida qatnashishiga erishish dolzarb muammolardan hisoblanadi.

### **Topshiriq va vazifalar:**

1. Uzliksiz ta'lim tizmida texnologiya ta'limining to'tgan o'rnini yoriting

2. Boshlag'ich sinflarda texnologiya ta'limini maqsad va vazifasi, mazmunini ta'riflang.

3. 5-7 sinflarda qizlar uchun qulay bo'lgan texnologiya ta'limini o'rganishi yo'nalishlarini yoriting.

4. 8-9 sinflarda o'qitiladigan texnologiya ta'limi yo'nalishlari mazmunini oching (xususiyatlarini ta'riflang).

5. Texnologiya ta'limida fanlararo aloqadorlik shakllarini ta'riflang.

**Adabiyotlar:** 1,2,3,10,11,15,16,17,18,19,20.

## IV. HOZIRGI SHAROITDA UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA TEXNOLOGIYA TA'LIMINING MAZMUNI

### REJA:

1. Umumta'lim maktablarida 1-9 sinflarda texnologiya ta'limi DTS mazmuni, tuzilishi.
2. Boshlang'ich 1-4 sinflarda texnologiya ta'lim yo'nalishlarini mazmuni.
3. 5-7 sinflarda texnologiya ta'limining o'g'il bolalar o'rganishlari uchun qulay bo'lgan yo'nalishlarini mazmuni.
4. 5-7 sinflarda qiz bolalar uchun qulay bo'lgan yo'nalishlarini mazmuni.
5. Texnologiya, servis va dizayn sohalarini mohiyati.

**Tayanch iboralar:** ta'lim to'g'risidagi qonun, DTS, reja, dastur, texnologik xarita, loyihalashtirish, darsning tuzilishi.

**Dars o'tish vositalari:** o'quv dasturi, o'quv qo'llanma, mashg'ulot ishlanmasi, jadvallar, yo'l-yo'riq xaritalari, topshiriq kortochkalari, tarqatma materiallar, texnik vositalardan: proyektor, o'quv televideniyesi, videomagnitafon, kompyuter vediofilmlar, multimedialar va boshqa ko'rgazmali vositalar.

**Dars o'tish usullari:** o'qitishning og'zaki, ko'rgazmali va amaliy, izohli-ko'rgazmali, muammoli izlanishli, faol o'qitish, an'anaviy va noan'anaviy o'qitishning zamonaviy metodlaridan aqliy hujum, bahs - munozara, vidiomateriallardan foydalanish, muzyorar, improvizasiya, pinbord hamda davra suhbatlari va h.k.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya ta'limi quyidagicha an'anaviy tuzilishga ega:

1. I-IV sinflarda – turli xil mehnat materiallari (qog'oz, karton qiyqimlari, plastilin, loy v.b.) bilan tanishtirish, ulardan turli o'yinchoqlar yasash, didaktik materiallar tayyorlash, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish faoliyatiga odatlantirish, modellashtirish (buyumlarning kichraytirilgan nusxalarini tayyorlash) asoslarini o'rganish, tabiiy va sun'iy materiallardan turli xildagi shakllar yasashni o'rganishlaridan va boshqalardan iborat. Haftasiga mehnat darsiga ajratilgan vaqtni fakultativ mashg'ulotlar hisobidan kelajakda 2 soatga oshirish tavsiya etiladi, chunki 1 soat davomida o'quvchilarga bajariladigan ishlar to'g'risida umumiy tushunchalar va nazariy ma'lumotlar berilsa, keyingi soatlarda esa amaliy yumushlarni bajarish, mashg'ulotlarda buyumlar yasash yo'llari, uslublari o'rganiladi, boshlang'ich amaliy ko'nikmalar va malakalar shakllantiriladi.

2. V-VII sinflarda texnologiya ta'limi quyidagi tuzilishda amalga oshiriladi:

**I. O'g'il bolalar uchun texnologiya:** a) yog'ochga ishlov berish; b) materiallarga turli xildagi ishlov berish; v) qog'oz va karton, shisha, plastmassa va boshqa materiallar bilan ishlash; g) elektrotexnikaviy ishlar; d) uy-ro'zg'or elektr buyumlarini o'rganish va tuzatish; ye) tuzuvchilik-loyihalash (konstruktorlik) asoslari.

Ushbu bo'limni o'rganishda o'quvchilar turli materiallar (yog'och, metall, qog'oz, shisha, plastmassalar va boshqalarning tuzilishi, xususiyatlari, xossalari to'g'risida nazariy bilimlarga ega bo'ladilar, ularga turli xil ishlovlar berishlar, rejalash, rejalash asboblari, arralash, teshish, yo'nish, pardozlash ishlari va ularni bajarishda ishlatiladigan asboblarni, tuzilishlari, ishlashi, kuch uzatilishi, kul, elektr va mexanizasiyalashtirilgan jihozlar, yangi texnika va ilg'or texnologiya asoslari, texnologik (ishlab chiqarish) xaritalari, ularni tuzish va ular bilan ishlash, mehnat xavfsizligi qoidalari to'g'risidagi va boshqa turdagi hamda hajmdagi nazariy bilimlarga ega bo'ladilar. Texnikaviy mehnat bo'limida o'quvchilar turli sinflarda turli xil qo'l asboblarini (rejalash, teshish, yo'nish, arralash) ishlatish, qurilmalar, stanoklarni boshqarish malakalari, turli xil operatsiyalarni bajarish (rejalash, teshish, o'yish, arralash, sovuqlayin va qizdirib ishlash v.b.) amaliy malakalarini, texnologik xaritalar bilan ishlash, mo'ljallash, texnikaviy randalar (shablonlar), hujjatlar bilan ishlash hamda boshqa turli xil kasbiy malakalar va ko'nikmalarni egallay oladilar.

**II. Qiz bolalar uchun (servis va dizayn):** a) gazlamalar bilan ishlash – bichish, tikish, tikuvchilik asoslari; b) oziq-ovqat mahsulotlarini yig'ish, tashishi, saqlash hamda ularga birlamchi va asosiy ishlov berish; turli xil asboblar bilan ishlash va ularni ishlatish; taomlar tayyorlash; turli xil asboblar bilan ishlash va ularni ishlatish; taomlar tayyorlash; turli xil mexanizmlarni, elektrlashtirilgan vositalarni ishlatish, boshqarish; kiyimlarni bichish, to'qish, tuzatish va boshqalarni maqsad qilib qo'yadi.

Texnologiya ta'limining yuqorida keltirilib o'tilgan an'anaviy ko'rinishlari mazmuni hozirgi vaqtda o'zbek xalqining milliy, etnografik, mahalliy xususiyatlarini, sharqona tafakkurini, aqidalarini, madaniyatini, qadriyatlarini o'zida to'liq aks ettirmaydi.

**Xalq milliy hunarmandchiligi (dizayn)** sinov tariqasida mehnat ta'limi tizimiga kiritilishi va amaliyotda qo'llanilishi (150 dan ziyod turli xil) bunday talablarning barchasiga javob beradi. U quyidagi tuzilishga (150 dan ziyod turli xil) sohalarga ega: ganch o'ymakorligi, naqqoshlik,

yog'och o'ymakorligi, tosh va suyak o'ymakorligi, kandakorlik, misgarlik, qulolchilik, sandiqsozlik, beshiksozlik, pichoqsozlik, zargarlik, gilamchilik, choponsozlik, kigiz bosish, do'ppichilik, mo'jaz rangtasvir, sharqona miniatyurachlik, rextagarlik, zardo'zlik va kashtachilik (so'zanachilik), patdo'zlik, milliy musiqa asboblari tayyorlash, me'morchilik, savatsozlik, buyrachilik, novvoychilik, milliy dehqonchilik sohalari, o'tlovchilik, milliy taomlar tayyorlash, oshpazlik, turli xil materiallardan o'yinchoqlar tayyorlash kabi juda ko'plab, keng qirrali yo'nalishlarga ega.

Xalq hunarmandchiligining mahalliy va milliy sharoitlarga mos keladigan kasb-hunar sohasini o'rganishda o'quvchilar quyidagi bilimlarga ega bo'ladilar: ma'lum kasb-hunar sohasining tarixi, kelib chiqishi; etnografik ildizlari; ma'lum sohalardagi xalq ustalari va ularning ijodiy va hayotiy faoliyatlari; hunarmandchilikning sharq madaniyatidagi tutgan o'rni; tarqalishi, hunarmandchilikning keng tarqalgan, rivojlangan turlari, ularning yo'nalishlari; Toshkent, Samarqand, Xiva, Buxoro, Termiz, Nukus, Andijon, Farg'ona, Namangan hunarmandchilik maktablari va ularning o'ziga xos yo'llarini; tarixiy-me'morchilik obidalarini saqlash, mahalliy mehnat xomashyolarining manbalari, turlari, tarqalishi, ularning hunarmandchilik markazlarining shakllanishiga ta'siri va boshqalar.

Xalq hunarmandchiligi asoslarini egallashda o'quvchilar quyidagi amaliy ko'nikmalar va malakalarga ega bo'ladilar; turli xildagi materiallarga ishlov berish; hunarmandchilik asboblari moslamalari va uskunalari bilan ishlash; ma'lum sohalarda foydalaniladigan elektr va mexanizasiyalashtirilgan moslamalar, mexanizasiyalar va qurilmalar bilan ishlash; tayyor buyumlarni –hunarmandchilikning noyob sanoat asarlarini asrash, ta'mirlash va umrini uzaytirish; xalq hunarmandchiligining turli sohasida qo'llaniladigan, yo'l-yo'riqlar ko'rsatadigan, operasiyali, texnologiya, texnikaviy jarayonlar mehnat xavfsizligi va normativ hujjatlar bilan ishlash; bozor iqtisodiyoti sharoitida tayyorlangan buyumlar va asarlarni iste'molga chiqarish; turli xil yo'nalishlar bo'yicha egallaniladigan, takomillashtirilib boriladigan kasb-hunar ko'nikma va malakalari va boshqalar.

### **Topshiriqlar va vazifalar:**

1. Texnologiya ta'limi tarkibida o'rganiladigan yo'nalishlar mohiyatini yoritish.
2. Maktab texnologiya ta'limi o'quv kursi negizida tashkil etiladigan amaliy mehnat mashg'ulotlari mazmuni.

3. Xalq hunarmandchiligi sohalari mehnat ta'limining milliy, tarixiy asosi sifatida tushuntiring.

4. Texnologiya ta'limining kelajak taraqqiyotining texnologiya, dizayn va servis xizmati ko'rinishda asoslang.

5. Texnologiya ta'limida qishloq xujaligi sohasini o'rganishni o'zingiz yashayotgan xududida keng taraqqalغان tarmoqlar sifatida yoriting.

**Adabiyotlar:** 1,2,3,5,8,10,14,15,16,17.

## V. TEXNOLOGIYA TA'LIMINING O'QUV-METODIK, MODDIY- TEXNIKAVIY TA'MINLANISHI

### R E J A :

1. Texnologiya ta'limining o'quv metodik ta'minoti qismlari.
2. Texnologiya ta'limining moddiy-texnik jihatdan jihozlanishi.
3. Texnologiya ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish.
4. Texnologiya ta'limi ta'minotining mahalliy va zamonaviy imkoniyatlari.

**Tayanch iboralar:** darslik, o'quv qo'llanma, uslubiy qo'llanma, internet ma'lumotlari, reja, dastur, texnologik xarita.

**Dars o'tish vositalari:** o'quv dasturi, o'quv qo'llanma, mashg'ulot ishlanmasi, jadvallar, yo'l-yo'riq xaritalari, topshiriq kortochkalari, tarqatma materiallar, texnik vositalardan: proyektor, o'quv televideniyasi, videomagnitafon, kompyuter vediofilmlar, multimedialar va boshqa ko'rgazmali vositalar.

**Dars o'tish usullari:** o'qitishning og'zaki, ko'rgazmali va amaliy, izohli-ko'rgazmali, muammoli izlanishli, faol o'qitish, an'anaviy va noan'anaviy o'qitishning zamonaviy metodlaridan aqliy hujum, bahs - munozara, vidiomateriallardan foydalanish, muzyorar, improvizasiya, pinbord hamda davra suhbatlari va h.k.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya ta'limi o'qitilishining zamonaviy talablaridan kelib, ta'lim andozalarini ishlab chiqish, o'quv dasturlarini, o'quv qo'llanmalarini, tavsiyanomalarni, o'quvchilar, o'qituvchilar, murabbiylar, tarbiyachilar uchun zarurli darsliklar yaratish, tarqatish va ko'rgazmali materiallar tuzish, shu sohadagi ilmiy-tadqiqot ishlari mehnat ta'limining ilmiy-metodik ta'minoti bo'lib xizmat qiladi. Bu jarayon, ya'ni, mehnat ta'limining ilmiy-uslubiy asosini yaratish avvalo, yagona tizimga va tartibga solinishi, boshqarilishi hamda, eng muhimi, o'quv-tarbiya tizimini mazmunan va shaklan takomillashtirishga qaratilishi lozim. Ilmiy-metodik ta'minot maktab uslubi kengashlari, tuman, viloyat xalq ta'limi bo'limlari, tegishli vazirliklardagi ilmiy-uslubiy kengashlar va markazlarining faoliyatlari, ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy o'quv yurtlaridagi tegishli kafedralarda olib borilayotgan mazkur yo'nalishlardagi ilmiy izlanishlar, tadqiqot-tajriba ishlari bilan uyg'unlashtirilmog'i lozim.

O'zbekiston Respublikasi FAning pedagogika, psixologiya va xususiy fanlar o'qitish metodikasi bo'limini yoki pedagogika-psixologiya kichik akademiyasini ochishni tashkil etishni hamda, ushbu bo'limga faqatgina shu soha mutaxassis olimlarining saylovini demokratik

haqqoniy asosda o'tkazilishi, uni takomillashtirishga va bu sohadagi ilmiy tadqiqotlarni tartibga solishga katta yordam beradi. Mazkur yo'nalishdagi 13.00.01 - pedagogika nazariyasi va tarixi, ta'lim menejmenti, 13.00.02 - Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnologiya) va 13.00.08 - kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi sohalari bo'yicha qilinayotgan ishlar, doktorlik dissertasiyalarining saviyasini oshirish hamda ularni o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirishga yo'naltirilishi, mehnat ta'limining uzluksizligini mustahkamlashga qaratilishi lozim. Maxsus ilmiy kengashlarning mazkur soha bo'yicha ixtisoslashtirilishi, yo'nalishlari, mezonlari aniqlashtirilib, tartibga solinishi, doimiy uzluksiz faoliyati ta'minlanishi lozim.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari, pedagogik bilim yurtlari va kollejlari, xalq ta'limining tegishli tuman, viloyat va vazirlik bo'limlaridan, amaliy-pedagogik tajribaga ega va kasbiy faoliyatlari ta'lim-tarbiya ishiga bog'liq bo'lgan mutaxassislarni ilmiy ishlarga jalb etish, ularni doktoranturalarga ta'lim olishlariga sharoit yaratish, xizmatiga qarab, (prof. J.G.Yuldoshev g'oyasiga asosan) "katta o'qituvchi", "metodist-o'qituvchi", "dotsent", "professor", "akademik" unvonlariga tavsiya etish ko'lamini har tomonlama kengaytirish zarur.

Texnologiya ta'limini amalga oshirishning o'ziga xos asosiy shartlaridan biri-uning barcha bo'g'inlaridagi o'quv jarayonining moddiy-texnikaviy, uslubiy-didaktik jihatdan hozirgi zamon talablari asosida ta'minlanishidadir. Texnologiya ta'limi jarayonining, uning sinfdars va ta'limiy-tarbiyaviy shakllarining, tadbirlarining turli xil tarqatmali va ko'rgazmali didaktik vositalar, stanoklar, maxsus binolar, shiyponlar, traktor va avtomobillar, yer maydonlari, tajriba-sinov maydonlari (poligonlar), yo'l-yo'riqli va huquqiy, ma'muriy hujjatlar majmualari, asbob-uskunalar, moslamalar, elektr toki, yoqilg'ilar, yonilg'ilar, ehtiyot qismlar va boshqa qimmatbaho ashyolar, anjomlar bilan ta'minlashga barcha davlat tashkilotlari, xususiy, kichik, qo'shma korxonalar ma'muriyatlari va mehnat jamoalari, ota-onalar hamda keng jamoatchilik yagona hamkorlikda faoliyat ko'rsatishga jalb etilsagina bu sohani yanada samaraliroq tashkil etish muammosi hal etilgan bo'lar edi, pirovard natijada mehnat ta'limini o'qitish ishi yanada yaxshiroq tashkil etiladi.

### **Topshiriqlar va vazifalar:**

1. Texnologiya ta'limi yo'nalishlari bo'yicha (soha ixtiyoriy) 10 soatlik ishchi reja tuzing.

2. Texnologiya ta'limidagi ixtiyoriy yo'nalishi bo'yicha 20 soatlik ishchi reja tuzing.

3. Ixtiyoriy yo'nalish bo'yicha 2 soatlik dars ishlanmasini (1 soat nazariy, 1 soati amaliy) tuzing.

4. Gazlamalarga ishlov berish sohasi bo'yicha 20ta test tuzing.

5. Yog'ochga ishlov berish yo'nalishi bo'yicha 2 ta tarqatmali material tuzing.

**Adabiyotlar:** 1,2,4,6,7,9,10,11,12,13.

## **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari.**

1. Mirziyoev SH.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. – T.: "O'zbekiston", 2016.-56 b.

2. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: "O'zbekiston", 2017.-102b.

3. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017.-488 b.

4. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxti iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. –T.: "O'zbekiston", 2015.-302 b.

### **II. Normativ-huquqiy hujjatlar.**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 9 fevraldagi "Sog'lom ona va bola yili" Davlat dasturi to'g'risida"gi PQ-2487-sonli Qarori. – T.: O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 7-son, 62-modda.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" Farmoni. – T.: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi Umumiy o'rta ta'lim to'g'risida nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi 140-sonli Qarori. – T.: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 11-son, 167-modda.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli Qarori. – T.: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 14-son, 230-modda.

5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2017 yil 17 oktyabrdagi 330-sonli "Davlat ta'lim standarti bo'yicha umumiy o'rta ta'limning malaka talablarini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi darajasini va ularning bilimlari sifatini nazorat qilish bo'yicha baholovchi mezonlarini tajriba-sinovdan o'tkazish to'g'risida" bo'yrug'i va uning asosidagi reyting tizimi Muvaqqat Nizomi. – T.: 2017.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi "Xalq ta'limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-sonli [Farmoni](#). – T.: O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2018 y., 10 sentyabr, 36-son, 722-modda.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi "Xalq ta'limi tizimiga [boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida](#)" PQ-3931-son [Qarori](#). – T.: O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2018 y., 10 sentyabr, 36-son, 728-modda.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining [2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmoni](#). – T.: O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2019 y., 6 may 18-son, 348-modda.

### **III. Maxsus adabiyotlar.**

1. Muslimov N., va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: "Fan va texnologiyalar", 2013 y. 8 b.t.

2. Davlatov K., Vorobyov A., Karimov I. Mehnat va kasb ta'limi nazariyasi hamda metodikasi. - Toshkent., O'qituvchi, 1992. - 320 b.

3. SHaripov SH.S., Vorobyov A.I., Muslimov N.A., Ismoilova M. Kasb ta'limi pedagogikasi. - Toshkent., 2005. - 58 b.

4. SHaripov SH.S. va boshqalar. Mehnat ta'limi: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – T.: "SHarq", 2012.-240 b.

5. SHaripov SH.S., Qo'ysinov O.A., Abdullaeva Q. Texnologiya: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. – T.: "SHarq", 2017.-240 b.

6. SHaripov SH.S., Qo'ysinov O.A., Abdullaeva Q. Texnologiya: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. – T.: "SHarq", 2017.-240 b.

7. SHaripov SH.S., Qo'ysinov O.A., ergashev SH.T., Tohirov O'.O., va b. Texnologiya fanini o'qitish va psixologik xizmatni tashkil etishda innovasion texnologiyalardan foydalanish. // O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. – T.: "Muxammad poligraf" MCHJ, 2017.-80 b.

8. Qo'ysinov O.A., Tohirov O'.O., Mamatov D.N., Aripova D.F. Mehnat ta'limi. 6-sinf. // O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. – T.: "POYTAXT-PRINT" MCHJ, 2016.-191 b.

9. Qo'ysinov O.A., Tohirov O'.O., Mamatov D.N., Aripova D.F. Mehnat ta'limi. 7-sinf. // O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. – T.: “POYTAXT-PRINT” MCHJ, 2016.-166 b.

10. Qo'ysinov O.A., Tohirov O'.O., Mamatov D.N., Aripova D.F. Mehnat ta'limi. 8-sinf. // O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. – T.: 2016.-134 b.

11. Tohirov O'.O. Texnologiya fanini o'qitish metodikasi. // O'quv moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – T.: TDPU, 2018.-265 b.

12. Z.SHamsieva. O'.Tohirov. Mehnat ta'limi o'quv fanidan darsdan tashqari to'garak mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha metodik tavsiya. – T.: “ABU MATBUOT-KONSALT”, 2013.-32 b.

## **II. ilmiy maqolalar to'plami va metodik tavsiyanomalar**

1. Doniyev B.B. O'qituvchi kadrlarning kasbiy mahorati darajasini tahlil qilish. //Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Samarqand, 2011.

2. Doniyev B.B. O'qituvchi faoliyatini pedagogik nazorat qilish //Talabalar bilan ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlarini olib borishda psixodiagnostik uslublar va psixotreninglardan foydalanish. Respublika ilmiy konferensiyasi materiallari. SamDChTI, Samarqand-2010.

3. Doniyev B.B. Umumiy pedagogika /O'quv-uslubiy qo'llanma. SamDChTI nashri, Samarqand, 2009. -56 b.

4. Doniyev B.B. Mehnat ta'limi o'qituvchisi pedagogik faoliyatini nazorat qilish metodikasi /O'quv-uslubiy qo'llanma. Samarqand, 2010. - 72 b.

5. Муранов Б.И. Совершенствование методической подготовки студентов педвузов к руководству производственной практикой сельских школьников. Метод. Рек – Самарканд, - 1991. – 110 с.

6. Xadjabayev A.R., Muranov B.I. O'zbekiston respublikasida umumta'lim maktablarida mehnat ta'limi konsepsiyasi. T.: XTITI. 1997. 21 b.

7. Шодиев Н.Ш. Внеклассная и внешкольная работа по профориентации учащихся. Ташкент. Фан. 1988. 112 с.

8. Muranov B.I. Mehnat ta'limi taraqqiyoti: muammolar, yechimlar, istiqbol rejalar. /Metodik tavsiyalar. Samarqand, VPKQTMOI 2007. -24 b.

9. Muranov B.I. Xalq hunarmandchiligini o'rganishda o'quv-tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish. /Met. tav. -Samarqand, VPKQTMOI. 2011. -20 b.

DONIEV B.B.

**MAKTABLARDA KASBGA YO‘NALTIRISH TA‘LIMI  
ISLOHATLARNING ZARURLIGI**

(Uslubiy ko‘rsatma)

Texnik muharrir *Abdullayev F.*

Terishga berildi: 20.09.2021 y.

Bosishga ruxsat berildi: 25.09.2021 y

Ofset bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84 <sup>1/16</sup>.

«Cambria» garniturasini. Ofset bosma usuli.

1,5 bosma taboq Adadi: 50 nusxa. Buyurtma № 26/21

Samarqand viloyati Samarqand viloyat xalq ta‘limi xodimlarini qayta tayyorlash  
va ularning malakasini oshirish hududiy markazi bosmaxonasida chop etildi.

---

Samarqand shahar, Obidinov ko‘chasi 7-uy.